

## TARIX DARSLARIDA TALABALAR MUSTAQIL FIKRINI RIVOJLANTIRISHDA TRENING USULINING AHAMIYATI

Odinayev Furqat Saparmuratovich

Muzrabot tumanidagi 56-umumiy  
òrta ta'lim maktabining tarix fani  
òqituvchisi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarix fanini òqitishda Talimning xilma-xil turlari, imkoniyatlari, ilg'or xususiyatlarini òzida jamlagan trening usulining tarixiy faktlarni sharhlash va asoslash orqali shaxsiy fikrlarni rivojlantirishdagi ahamiyatiga alohida tòxtalib òtilgan.

**Kalit sòzlar:** xatarnok, integratsiya, ratsional xulosa, kreativ tafakkur, original qaror, unikal qaror, tushuntirishli, kòrgazmali, muammoli, dasturlangan, tabaqalangan, masofali, modul.

Bugun yosh avlodni aqlan yetuk va manaviy barkamol qilib tarbiyalashda talim-tarbiya jarayonida qòllaniladigan usul va vositalar muhim ahamiyatga ega. Barkamol shaxs tarbiyasida avvalo tarbiyalanuvchida mustaqil fikrlash, òz aqliy va amaliy faoliyatini mustaqil tashkil eta olish kònikmasini hosil qilish zarur. Bu haqda buyuk alloma Hoja Baxovuddin Naqshband shunday yozadi: "Nabini vaqti suftin, mard haq nok, ba shogirdin di xal durri xatarnok". Mazmuni: "Kòrmaysanmi durga ishlov beruvchi usta durni teshayotgan vaqtda xatarnok (nozìk qimmatbaho) durni teshishni shogirdiga topshiradi" [3]. Bu fikrdan shu narsa kòrinadiki, ta'limni òrgatish, birga bajarish kabi bosqichlarida òrganuvchiga erkinlik berish, ijodiy fikrlash va òzligini tòla namoyon qilishiga dars jarayonida imkon berishimiz kerak.

Mustaqil fikrlash qobiliyati shaxs narsa va hodisalar xususida òz qarashida hamda nostandart yechimlarni topishiga intiladi. Demak mustaqil fikrlash talabaning narsa va hodisalarning mohiyati xususida òz qarashlari bòlishini taqazo etadi. Uning bilish va anglash imkoniyatlari chegarasini kengaytiradi.

Tarix ta'limning bosh vazifasi yosh avlod ongida siyosiy, nazariy, ilmiy, siyosiy dunyoqarashni shakllantirish, voqea va hodisalarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashadigan, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Mustaqil fikrlashni rivojlanishiga ta'sir kòrsatuvchi omillar:

Birinchidan: mustaqil fikrlash inson biror obektning mohiyatini anglab yetgandagina yuzaga keladi. Talaba tarixiy voqealarni turli vositalar yordamida òrganib, uning mohiyatini his etib, unga nisbatan òz fikri va munosibatini bildirsa, o'sha mustaqil fikrlay boshlaydi. Mazkur jamoaviy intellektual jarayonlarda ishtirokchi, guruh va qatnashuvchilarni bildirayotgan tògri, haqiqatga yaqinroq yoki xato fikrlar orasidan òzi uchun zarur bòlgan ratsional xulosani keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan: mustaqil fikrlash uchun mavjud ma'lumotlarni xar tomonlama taxlil (sintez) qilish zarur. Tarix ta'limida trening uslubining qòllanilishi tarqqiyotning turli bosqichlaridagi hayot tarzini solishtirish, taxlil qilish, mazkur voqelikka sabab bòlgan tarixiy jarayonlar, voqelik rivoji natijalaridan kelib chiqqan oqibatlarini davriylik nuqtayi nazardan òrganish samarali kechadi va òquv fanlariga integratsion yondashuvni keltirib chiqaradi. Bu xaqda mutaxassis U. Musayev shunday fikr bildiradi: "Talimda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy ham pedagogik va fiziologik jixatdan ahamiyatlidir". Tarix darslarida trening uslubini qòllanilishi «Òzbekiston tarixi» va «Jahon tarixi» fanlarini òzaro aloqadorlikka òrganishni nazarda tutadi.

Uchinchidan: mustaqil fikrlash inson òzini anglagandagina, òzgalar fikrini tushunib, boshqalar bilan faol munosibatda kirishgandagina yuzaga keladi. Trening uslubidagi darslarda qatnashgan talaba òz imkoniyat darajasini tushunib yetadi, trening jarayonida unda faol òrtoqlar darajasiga yaqinlashish, bazan esa, ulardan xam òzib ketishiga imkoniyat hosil bòladi.

Tòrtinchidan: mustaqil fikrlashda talabani òz hatti harakatlariga nisbatan ishonch his ettirish zarur.

«Jiddiy, teran haqiqiy iroda eng avvalo maqsadga erishishga ishonch tasavvurlari bilan uygunlikda ifodalanadi» - deb yozgandi logann Gyote [2]

Psixolog Deyl Karnegi - kishilarga xaqorat qilmay va ranjitmay tasir kòrsatishning 9 qoidasidan biri sifatida shunday yozadi."Kishilarga shans Beshinchidan: yaratib berinki, uni oqlash harakatiga tushib qolsinlar "va buni quyidagi misol bilan izohlaydi: "Neapoldagi fabrikada ishlovchi òn yoshli bolakay qòshiqchi bòlishni orzu qilardi biroq birinchi òqituvchisi uni hafsalasini pir qilib qòydi :-sendan qòshiqchi chiqmaydi ,ovozing derazaga tirqishidan kirayotgan shamolga òxshaydi!Kambağalgina onasi uni bağriga bosib -Men bilaman sen qòshiq ayta olasan , ovozindagi òzgarishni sezayapman -der edi doim. Maqtovlar bola taqdirini belgilab berdi.Òsha bolakay (mashxur) qòshiqchi ) Enriko Karuzo edi ." [1,103-105 betlar].

Oltinchidan : trening darslarida axborot ,texnika va kòrgazmali vositalardan unumli foydalanish orqali talabalarda izlanuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobilyatini òstirish muammolarini hal etishda yaxshi samara beradi.Trening jarayoninig kompyuter imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilishi,xususan ,tarixiy qahramonlar suratlarini talabalarga namoish etish talabalarga munozara mavzusini, muammosiningbmazmunini tushuntirish yònalish berish mumkin.

Yettinchidan:Mustaqil fikrlar inson bahs-munozaraga kirganda tuğiladi ,shakllanadi va rivojlanadi .Utmish voqealari haqida bahs yuritganda ,turli vazifalar,qarashlar yuzaga keladi .Biroq hamma ovozlari muxim ,ularni eshita olish va tuğri xulosalarga kelish lozim .[3,62].Munozara jarayonida an'anaviy darslardan farqli ravishda qarama-qarshi borligini aniqlash ham shaxsda ushbu fikrlarga nisbatan ancha faol fikrlarni shakllantiradi.

Sakkizinchidan: mustaqil fikrlar shakllanishida bilishga bòlgan rağbat (stimul )kerak .Tarix talim va trening jarayonida bu borada katta imkoniyatlar mavjud. Trening darslarida ,avvalo ,tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab etiladi. Shuning uchun ham talabalarining mustaqil va tanqidiy fikrlarni òstirishda talimning interfaol usullaridan keng hamda òrinli foydalaniladi. Bunda ananaviy darslardagidek 5-6 talaba emas, deyarli barcha talaba baholanadi .Trening muvoffaqiyatli natija berishi uchun trener -òquvchi psixolog Deyl Karnegening ushbu maslahatiga amal qilsa yaxshi bòladi : "Kishilarning kichik bir yutuqlarini ham qòllab quvatlang ,xar bir muvoffiqiyatga etibor qarating ,baho berishda xolis ,maqtovga sahiy bòling ".[1].Yuqoridagi qoida va talablar asosida talabaning kreativ tafakkuri shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda bugunbtarix fanini òqitishga ta'limning xilma-xil turlari (tushuntirishli,kòrgazmali,muammoli,dasturlangan,tabaqalangan ,masofali,modul,bloki) imkoniyatlari ,ilğor xususiyatlarini òziga jamlangan trening usuli tarixiy faktlarni sharhlash va asoslash orqali shaxsiy fikrlarni hosil qiladi .Bu esa mustaqil fikrlashning natijasi sifatida voqea xodisalarini tushuntirishning turli usullarini yuzaga keltiradi .Tarixiy voqealarni baxolashni turli kòrinishlari bilan tanishish talabalarga ularning xar tomonlama muhokama qilishga imkoniyat yaratadi .Ikkinchidan baxs-munozara jarayonida bildiradigan xilma-xil qarashlar asosida tarixni muqobillik asosida tushuntirishning shakllantiradi.[3,62-bet]

#### Foydalangan adabiyotlar va manba

1. Deyl Karnegi .Qanday qilib buet ortirish va odamlarga ta'sir kòrsatish mumkin.Namangan ,2007.
2. Tòychiyeva G.Yoshlar va konfliktar :konfliktar yechimiga òrganish .T.,2008.
3. Xòjaev B.Tarix fanining mustaqil fikrlarni shakllantirishdagi imkoniyatlarni .Xalq ta'limi, 2008.